



INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES

BRUSSELS

universalconference.us

INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL- HUMANITARIAN SCIENCES

Volume 02, Issue 03, 2025 (1-MAY)

Editor in Chief

Dr. Rajeet Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology, Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRs, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

ДЕЛЛИТАЦИОН КАРДИОМИОПАТИЯЛАРДА ТАКРОРИЙ УМУМИЙ АНЕСТЕЗИЯНИНГ АСОРАТЛАРИ.

Собиров М.М., Аташев А.Р., Р.Х.Каримов., Хударганов И.А.

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали. РТТЁМ Хоразм филиали.

Мавзунинг долзарблиги: жаррохлик амалиётларида деллиатцион кардиомиопатияларда такрорий умумий анестезиянинг асорати сифатида юрак бўшлиқларининг кенгайишининг ривожланиши, систолик дисфункциянинг пайдо бўлиши билан, аммо девор қалинлигининг ошиши билан тавсифланган миокард касаллиги юзага келмоқда.

Амалиёт пайтида юрак етишмовчилигининг ривожланиши, юрак аритми ва ўтказувчанлигининг бузилиши, тромбоэмболия ва тўсатдан ўлим билан тавсифланади. Касалликнинг мезони чап қоринча фракциясининг 45% дан паст бўлиши ва диастоладаги чап қоринча бўшлиғининг ўлчамининг 6 см дан ошиши ҳисобланади.

Ишнинг мақсади: ишнинг мақсади сифатида жорий йил давомида РШТЁИМ Хоразм филиалига мурожаат қилган беморларнинг ЭКГ, рентгенография, ЭХО текширувлардан ўтказиб жаррохлик амалиётига тайёргарлиги ўрганилди.

Олинган натижалар: изланишлар давомида жорий йил давомида РШТЁИМ Хоразм филиалига мурожаат қилган беморларни жаррохлик амалиётига тайёргарлик кўриш учун ЭКГ ва ЭХО текширувлардан ўтказилиб, 60 нафар бемордан 20 нафарида сурункали юрак ишемик касаллиги аниқланди. 10 нафарида жаррохлик амалиёти вақтида такрорий умумий анестезия пайтида беморда аритмия жараёни кузатилди.

Хулосалар: хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ҳар қандай касалликларни олдини олиш, касалликга чалинган беморларни даволашда инструментал лабораториядан унумли фойдаланиш, муносиб овқатланиш: туз, ёғ ва углеводлар миқдорини назорат қилиш, юрак учун фойдали маҳсулотлар (мева-сабзавотлар, балиқ, ёғсиз гўшт) истеъмол қилиш, алкоголь ва тамаки истеъмолини чеклаш, **юрак-қон томир тизимига таъсир қилувчи касалликларни назорат қилиш, яъни** Гипертония, диабет, гиперлипидемия каби хавф омилларини бошқариш, юрак касалликларини эрта аниқлаш ва даволаш тавия қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Р.Аташаев, Р.Х.Каримов, & М.М.Собиров. (2025).

ДЕЛИТАЦИОН КАРДИОМИОПАТИЯНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ДОЛЗАРБЛИГИ. International conference on multidisciplinary science, 3(3), 75.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15100066>

2. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., Рузметова, Д. Т., & Султанов, Б. Б.

(2023). ВРАЧЕБНЫЕ ОШИБКИ В ПРАКТИКЕ АКУШЕРОВ-ГИНЕКОЛОГОВ. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 2, pp. 114-117).

3. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., & Рузметова, Д. Т. (2023, August). ЯТРОГЕНИЯ НА ПРИМЕРАХ ИЗ ПРАКТИКИ (По данным лет обзор). In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 1, pp. 10-12).

4. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., Рузметова, Д. Т., & Султанов, Б. Б. (2023, October). ЯТРОГЕНИЯ В НЕОНАТОЛОГИИ (ПО ДАННЫМ ЛЕТ. ОБЗОР). In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 3, pp. 76-78).

5. Турсунов, Х. З., Хакимова, Ф. Т., & Холиева, Н. Х. (2017). Спортивное сердце. *Молодой ученый*, 15(149), 677-679.

6. Ражабова Н. РОЛЬ ОБРАЗА ЖИЗНИ В РАЗВИТИИ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА. Академические исследования в современной науке. 2022;1(19):331-2.

НАВОИЙШУНОСЛИК ФАНИНИНГ АСОСЧИЛАРИДАН БИРИ

Boyxurozov Diyorbek Sherzod o'gli

(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

Аннотатсия: Шайхзода Тошкентда яшай бошлаган 10 йиллик муддатда ўзбек тилини пухта эгаллабгина қолмай, шу тилда шеър ва мақолалар ёзиш, Пушкиннинг асарларини таржима қилиш, Чўлпон ижодини тадқиқ этиш билан бирга Навоий ижодини ҳам меҳр билан ўрганган

Калит сўзлар: Мақсуд Шайхзода, Тошкент, Ойбек, Навоий, мақолалар, олим, Олим Шарафиддинов, шоир, Теша Салимов.

Мақсуд Шайхзода тўғрисидаги замондошлардан бири бундай ёзади: хотираларида “1938 йилнинг баҳор фасли. Адабиёт кафедрасига янги, жуда билимдон ўқитувчи келибди, деган овоза институтга бирданига тарқалди. Кўп ўтмай, овозанинг сабабчиси билан иш устида бевосита танишиш шарафига муяссар бўлдим...” Бу сатрлар Тошкент педагогика институтида узоқ йиллар давомида ишлаган, таниқли тилшунос олим Теша Салимовнинг қаламига мансуб. Хотиранавис гарчанд “янги, жуда билимдон ўқитувчининг педагогика институтига келган вақтини 1938 йил деб айтган бўлса-да, бу воқеа, бизнингча, 1939 йил баҳорида рўй берган. Ўша вақтда институтнинг ўзбек адабиёти кафедраси, бошқа ижодий муассасалар ва олий ўқув юртлари қатори, Навоийнинг 500 йиллик юбилейига тараддуд кўраётган эди. Шу муносабат билан ўша куни кафедранинг кенгайтирилган йиғилиши ўтказилиб, унда кафедра мудирини Олим Шарафиддинов Навоийнинг адабий меросини ўрганиш ҳақида маъруза қилди. Маъруза ҳаммага, жумладан, янги ўқитувчига ҳам манзур бўлди. Сўнгра маъруза бўйича муҳокама бўлиб ўтди. Муҳокамада қатнашганлар орасида бояги ёш олимнинг нутқи мажлис аҳлининг диққат-эътиборини ўзига жалб этди. Унинг эҳтиросли нутқи, Теша Салимовнинг ифодаси билан айтсак, “назарий жиҳатдан асосланганлиги, бой фактик материалларнинг теран илмий талқини, фикрни аниқ ва равшан ифода қила олишлиги” билан ажралиб турар эди. Бу ёш олим ўзбек адабиёти кафедрасининг янги аъзоси Мақсуд Шайхзода эди. “Бугунги учрашув, - деб давом этади Теша Салимов, - менинг учун алоҳида аҳамият касб этди. Шайхзоданинг Навоий ҳақидаги ўйлари, хусусан, Навоий шеърятининг поэтикаси борасидаги кишини тўлқинлантирувчи ажойиб фикрлари ҳаммани ҳайратда қолдирди. Лекин Шайхзода Навоий лирикаси мисолида менинг учун бутун бир нафосат оламини очди. Шу-шу бўлди-ю, мен

Шайхзоданинг содиқ мухлиси бўлиб қолдим. Узоқ йиллар давомида биз институтда бирга ишладик. Педагогик иш жараёнида ҳам Шайхзода мен учун ёрқин бир намуна бўлиб қолди”.

Камина 50-йилларнинг бошларида Ўрта Осиё Давлат университети (ҳозирги Ўзбекистон Миллий университети) нинг филология факультетида ўқиганимда, бир мунча муддат доцент Теша Салимовнинг тилшунослик масалалари бўйича маърузаларини эшитганман. Ўз соҳасини пухта билган домла ғоят камтарин, маданиятли, ажойиб инсон эди. Шундай инсонки, ўша пайтда “ёш олим”нинг Навоий тўғрисидаги билимига қойил қолган экан, демак, Шайхзода Тошкентда яшай бошлаган 10 йиллик муддатда ўзбек тилини пухта эгаллабгина қолмай, шу тилда шеър ва мақолалар ёзиш, Пушкиннинг асарларини таржима қилиш, Чўлпон ижодини тадқиқ этиш билан бирга Навоий ижодини ҳам меҳр билан ўрганган. Ўрганганда ҳам улуғ шоир ҳақидаги илк рисола муаллифи Олим Шарафиддинов билан баҳс қила биладиган, ўзбек тили ва адабиёти кафедраси аъзоларини Навоий ҳақидаги билими ва янгича қарашлари билан мафтун эта оладиган даражада бўлган.

Агар ўша йилларда Навоий ижодини ўрганиш ишига эндигина кирила бошлангани ва бу соҳада Олим Шарафиддинов, Ойбек сингари санокли адабиётшуносларнинг бўлганини эътиборга олсак, Шайхзоданинг қарийб улар билан бир вақтда Навоийни кашф этишга киришгани маълум бўлади. Хўш, у кимнинг ёки кимлар таъсирида ва қандай манбалар асосида Навоий ҳаёти ва ижодини ўргана бошлади? Биз Шайхзоданинг “Шарқ ҳақиқати” газетасида хизмат қилган кезларида Ойбек ва Ғафур Ғулом билан танишгани ва улар ёрдамида ўзбек тилини ўрганганини яхши биламиз. Шайхзода Фан комитетининг Тил ва адабиёт институти аспирантурасида ўқигани, сўнгра шу институтда қисқа муддат ишлаган пайтида Фитрат, Отажон Ҳошим ва Ойбек билан яқин муносабатда бўлганидан хабардормиз.

Маълумки, Ойбек 1928 йилдан бошлаб Навоий шахсига қизиқа ва у ҳақидаги мўътабар манбаларни ўргана бошлаган. Тахмин қилиш мумкинки, Ойбек шу манбалардан олган бир-биридан янги ва ғаройиб маълумотларни Шайхзода билан мулоқотлари пайтида айтган ва унда улуғ ўзбек шоирига нисбатан меҳр туйғуларининг ўт олишига тўртки берган. Қолаверса Шайхзода, ижодини ўргана бошлагани, шу муносабат билан кўп бор мулоқотда бўлгани Чўлпон 1924 йилдаёқ Навоий таваллудининг 500 йиллиги яқинлашаётгани ҳақида бонг урган ва улуғ шоир ижодини жиддий ўрганиш масаласини кун тартибига қўйган эди. Балки Шайхзоданинг Навоий ижоди билан “чангланиши”да Чўлпоннинг ҳам ҳиссаси оз эмасдир. Ҳар ҳолда педагогика институтига ишга келганида, у Навоий

ижодининг билимдонларидан бири сифатида эътироф этилган. Шайхзоданинг Навоий ҳақидаги бой билими ва бу билимнинг таркиб топиш сабаблари тўғрисида сўз борганда, яна Теша Салимовга мурожаат этиш жоиз. “Шайхзода билимдонлигининг сири, - деб ёзган эди у, - мутолаасининг зўрлиги, кенг кўламлилиги ва теранлигида эди”. Шайхзода билимдонлигининг сири бўлган бу уч омилнинг асосийси “мутолаанинг зўрлиги”дир. Шайхзода, ўтмишдаги барча олимлар сингари, билим бойлигига мутолаа йўли билан эришган.

У Навоий ҳаёти ва ижодини ҳам хусусий мутолаа йўли билан ўрганди. Шайхзода 1938 йилда “Ўқитувчилар газетасида” “Классик адабиётимизнинг улуғ сиймоси”, “Ёш ленинчи” газетасида эса “Хамса”да муҳаббат проблемаси” мақолаларини эълон қилдики, бу ҳол унинг шу йиллардаёқ Навоий оламига кирганини ошқор қилди. У 1938-1941 йилларда Уильям Шекспир, Низомий Ганжавий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Муҳаммад Аминхўжа Муқимий, А.Н.Радишчев, М.Ю.Лермонтов, Н.Г.Чернишевский, А.П.Чехов, А.М.Горький, В.В.Маяковский, М.Ф.Охундов, Анри Барбюс сингари ёзувчилар ёзувчилар ҳақида ўнлаб мақолалар ёзиш билан бирга улуғ ўзбек шоирини ҳам унутмади. Аксинча, Навоий Шайхзода адабийтанқидий фаолиятининг марказида турди. У юқорида тилга олинган икки мақоласидан ташқари, “Навоийда аёл образи” (1939), “Навоий - ўз даврининг энг маданий кишиси”, “Навоий – ватанпарвар”, “Навоий ижоди ва социалистик маданият”, “Илму маърифатнинг жўшқин куйчиси”, “Навоий ва Бобур” (1940), “Навоий ва ёшлик”, “Улуғ маорифчи”, “Навоийда адлу инсоф масаласи”, “Навоий ижодида фольклор мотивлари”, “Буюк шоир” деган мақолаларини ва “Гениал шоир” (1941) рисоласини эълон қилди. Шайхзода бу адабий-танқидий мақолалари ва илмий рисоласи билан шу даврда туғила бошлаган навоийшунослик фанига муҳим ҳисса қўшди ва бу фаннинг асосчиларидан бири бўлди, десак, хато бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мамурова Ф.И. и Дурдона О. (апрель 2024 г.). МАКСУД ШАЙХЗОДАНИНГ «МИРЗО УЛУГБЕК»АСАРИ ТАЛИЛИ. В Международной глобальной конференции (Том 1, № 6, стр. 79-81).
2. Durдона, О., & Мамурова, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA “TOSHKENTNOMA”. In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
3. Мамурова, F., & Обутjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO‘LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Академические исследования в современной науке, 3(12), 13-16.

4. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
5. Durdon, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA'RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).
6. Mamurova, F., & Qodirov, I. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING "TOSHKENTNOMA"-SHUKRONALIK DOSTONI. Молодые ученые, 2(6), 87-89.
7. Islamovna, M. F. (2024). THE PLACE OF MAKSUD SHEIKZODA'S LIFE AND CREATION IN UZBEK NATIONAL LITERATURE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 471-474.

MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI

Toshkent davlat transport universiteti

Aktamova Aziza Utkir kizi

Annotatsiya: Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi haqida, O'zbekistonga kirib kelishi hamda bu yerdagi mashhur adiblar bilan tanishuvlar, urush yillari davomidagi ijodlari haqida

Kalit so'zlar: ijod, jasurlik, adolatlilik, teran fikrlik, xalqparvarlik, adabiyotshunos

Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topib, Bokudagi oliy pedagogika institutida o'qigan, ijodga va adabiyotga bag'ishlagan umrining asosiy qismini esa O'zbekiston diyorida – Toshkentda o'tkazgan ijodkor haqida ko'plab yozuvchilarimizning asarlarida juda iliq fikrlar yozib qoldirilgan. Biz esa yuqorida aytib o'tilganidek Maqsud Shayxzodaning yoshligiga nazar solamiz.

Maqsud ota-onasining to'ng'ich farzandi bo'lgan. Oilasida undan so'ng yana to'rt farzand dunyoga kelgan. Bular Maqsud, Safura, Fuod, Nozim va Saidalar. Otasi Masim ota adabiyot va she'riyatga nihoyatda qiziqadigan inson bo'lib, kasbi shifokor bo'lgan. Shayxzodaga adabiyotga qiziqish ham otasidan o'tgan. Bo'lajak shoir Maqsud Shayxzoda adabiy munozaralardan bahra topib, shoh asarlarining jozibali ohangi va sehri ostida yashadi. U 12 yoshidanoq o'z ijodini boshlagan. Ilk saboqni Oqtoshdagi "Rushdiya" maktabida olgan. Maktabda u o'z she'rlarini o'qib, ustozlari va kelgan mehmonlarning e'tiboriga tushadi. Hattoki, she'rlari gazetalarda ham chop etilib, maktab direktori uning ota-onasini chaqirib, Maqsudning yanada kengroq ta'lim olishi uchun Bokuga yuborishni maslahat beradi. Keyinchalik u Bokudagi pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Bu yerda kengroq adabiy muhit ta'sirida bo'ladi, o'z davrining ziyolilaridan saboq oladi. Oliygoxda sirdan tahsil olgani bois, Darband shahrida muallimlik qilib, muntazam ziyoli insonlar bilan muloqotda bo'ladi va sovet mafkurasining chirkinligini anglab yetadi. Unga qarshi kurashadi.

1927-yilda Maqsud Shayxzoda va uning do'stlari aksilinqilobiy harakati uchun qamoqqa olinadi. Sud qaroriga ko'ra, u Moskva, Tbilisi va Bokudan boshqa istalgan shaharida surgun muddatini o'tashi mumkin edi. Maxachqal'dagi 9 oylik qamoqdan ozod qilingan Maqsud otasining istagi bilan Toshkentni tanlaydi. Chunki otasi Moskvada o'qigan paytlari Toshkentda yashayotgan Posho G'aniyev va Sobir Sharipov kabi asli ozarbayjonlik tanishlar orttirgan edi va otasi biror yordam kerak bo'lsa o'g'lining ularga murojaat qilishini aytadi.

Maqsud Shayxzoda 1928-yil fevral oyida Toshkentga keladi. Avvaliga ozarbayjonlik tanishlarining uyida yashaydi, keyinchalik esa shoir Dadakishiyning uyida ijarada turadi. Bir yil ichida o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirib olgach, o‘zbek maktablarida dars berishni boshlaydi. Bu orada O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga ham o‘qishga kiradi va faoliyati ancha kengayadi. O‘ziga bir qancha do‘stlar, hamfikrlar topadi. Kelgusida katta yozuvchilar qatoridan joy olajak G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor singari yoshlar bilan tanishib oladi. Bir oz vaqt “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq haqiqati” va “Yosh Leninchi” gazetalarida ishlaydi.

Keyinchalik aspiranturada o‘qishni davom ettirib, Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi. 1932-yilda shoirning “Loyiq soqchi”, “O‘n she‘r”, 1933-yilda “Uchinchi kitob”, “Undoshlarim”, 1935-yilda “Respublika”, 1937-yilda “Yangi davron”, “O‘n ikki”, 1938-yilda “Bayram qo‘shiqlari”, 1948-yilda “Vatan she‘rlari” kitoblari chop etiladi. 1938-yildan e‘tiboran, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dars berishni boshlaydi.

Urushdan keyingi qurilish yillarida qatag‘onlik jabrini tortgan bo‘lsa ham, o‘z el-yurtiga fidoyi shoir Vatanimiz bo‘ylab keng quloqch yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqida “O‘n besh yilning daftari”, “O‘lqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu‘la”, “Chorak asr devoni” kabi she‘riy to‘plamlarini yaratadi.

Maqsud shayxzoda, Said Ahmad, Shukrullo, Mirzakalon Ismoilov, Shuhrat, Mirkarim Osim va yana bir-nechta ziyolilar “sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati” olib borganlikda ayblanib 1952-yilda qamoqqa olindi hamda 25 yilga ozodlikdan mahrum qilindi.

Qamoqqa olinishidan oldinroq esa sudgacha bo‘lgan tergov jarayonlari ham 1937-1938 yillardagi dastlabki qatag‘on davrlaridan sira kam bo‘lgan emas. Kechayu kunduz so‘roqlar, soxta guvohlar bilan yuzlashtirishlar, besabab tahqirlar uning irodasini buka olmaydi. Yana shuni aytish mumkinki, o‘sha davr hayotini aks ettiruvchi arxiv hujjatlari bilan yaqindan tanishganimizda ko‘pgina adiblarimizdan ixlosingiz qaytib ketadi. Ammo Shayxzodagina bundan mustasno, chunki u o‘ziga ham, o‘zgalarga ham gard yuqtirmasdan, “chalchasavod” tergovchilarning bema‘ni savollariga aniq-tiniq javob qaytaradi. Ularni o‘zining zakiyligi (Zehni, aqli o‘tkir; dono, aql-li.) bilan mot qilib qo‘yadi. Lekin shunga qaramasdan u kishini yigirma besh yil ozodlikdan mahrum etish to‘g‘risida hukm chiqariladi.

Dushman sovet mamlakatining g‘arbiy chegaralarini bosib o‘tib, bir necha oy mobaynida Moskva ostonalariga yetib kelganida, taqdiri katta xavf ostida qolgan davlat rahbarlari yozuvchilarni o‘tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da‘vat etdilar. Ular fikriga ko‘ra, bunday asarlar xalq va armiyani o‘tmishdagi jasur

sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibratolishga da'vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlarini ruhida tarbiyalashi mumkin edi. Shunday ijofndiy buyurtmani olgan Shayxzoda o'zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin haqida sahna asarini yozishga kirishdi. Mo'g'ul istilosi davrida Movaraunnahrda katta jasorat ko'rsatgan Jaloliddin haqida Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, sovet tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning na nomi, na jangovar jasorati iliq so'zlar bilan tilga olingan edi. Shunga qaramay, Shayxzoda bu ajoyib siymo haqidagi Shahobuddin Muhammad Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni" va Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahongushoyi Juvayniy" kabi asarlarini o'qib, shu asarlarda tasvirlangan tarixiy davr voqealari asosida o'z asarini yozishga ahd qildi. Shuni alohida qayd etish joizki, Jaloliddin haqidagi noyob manbalardan biri – Nasaviyning nomi yuqorida qayd etilgan asarida mashhur sarkardaning ismi Jaloliddin Mangburni deb atalgan. Ammo Shayxzoda o'z asarida Jaloliddinni, tarixiy manbalardan farqli o'laroq, "Manguberdi" deb atagan va Nasaviy kitobidagi "Mangburni" so'zini o'zbek tiliga shunday tarjima qilgan. Va mashhur sarkarda o'zbek xalqi o'rtasida hanuzgacha shu nom bilan yashab keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, agar Xorazmshoh Chingizxonning tinchlik va totuvlik haqidagi taklifini qabul qilib, u yuborgan elchi bilan birga savdo karvonini ham qilichdan o'tkazmaganida, qudratli Xorazm saltanati XIII asrda mo'g'ullar tomonidan qonga botirilmagan bo'lardi. Xorazmshoh Chingizxonning o'sha davrdagi eng qudratli qo'shinni to'plagan bilan hisoblashmay, katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, chor atrofga o'lim urug'ini sohib, ya'juj-ma'juj singari bosib kelayotgan mo'g'ullarga qarshi o'tlangan Jaloliddinga yordam bermay, aksincha, unga har tomonlama qarshilik ko'rsatib, yana-da katta xato qilgan. Jaloliddin vatan va tarix oldidagi burchini chuqur his etgani uchungina kichik bir qo'shin bilan mo'g'ullarga qarshi tengsiz kurashga o'tlanadi va chinakam jasorat namunalarini ko'rsatadi. Jaloliddin mo'g'ullarning ashaddiy dushmani bo'lganiga qaramay, Chingizxon uning dovyurakligi va sarkardalik mahoratiga tan berishga majbur bo'ladi. Shayxzoda yetuk yozuvchi sifatida yoza boshlagan ilk sahna asariga ana shunday tarixiy shaxsni –mo'g'ul qo'shinlariga g'ulg'ula solgan, g'alaba yuz o'g'irgan jang maydonlaridan ham omoneson chiqib ketgan Jaloliddinni qahramon qilib oladi.

Agar 1953 yili I.V.Stalin vafot etmaganida Shayxzoda va unga o'xshagan beayb jazoga tortilgan adiblarning umri Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir singari nihoyatda fojiali kechishi mumkin edi.

1958-yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi "Toshkentnoma" lirik dostoni yaratildi. 1960-yilda «Mirzo yozgan Ulug'bek»

tragediyasida buyuk o‘zbek astronomi ma’rifatparvar va podshosi obrazini o‘zbek adiblaridan birinchi bo‘lib Shayxzodaning yaratdi. o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir.

Adabiyotlar

1. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In *E-Conference Globe* (pp. 176-178).
2. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. “*TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE*”, 1(3), 23-30.
3. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o‘g‘li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA)* (pp. 19-20).

**O‘ZBEK FOLKLOR QO‘SHIQLARI – BADI‘IY TUSHUNCHANI
O‘STIRUVCHI VOSITA**

Botirbayev Maxmudjon

Buxoro Xalqaro Universiteti II bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti (PhD) professori

**УЗБЕКСКИЕ ФОЛЬКЛОРНЫЕ ПЕСНИ – СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ
ХУДОЖЕСТВЕННОГО КОНЦЕПТА**

Батырбаев Махмуджон

Бухарский Международный Университет, магистрант 2-й ступени

Нуруллаев Фаррух Гайбуллоевич

Профессор Бухарского Государственного Педагогического Института

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek xalq qo‘shiqalarining inson badiiy tushunchasini o‘stiruvchi jihatlari haqida fikr yuritilgan. Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darsi o‘quvchilarda axloqiy – estetik tarbiyani shakllantirish hamda rivojlantirishda samarali predmet sifatida o‘qitiladi.

Kalit so‘zlar: xalq, folklor, qo‘shiq, musiqa, san’at, ta’lim, maktab, ashula, tuyg‘u, shaxs, tarbiya.

Аннотация: В статье рассматриваются аспекты узбекских народных песен, которые развивают художественное восприятие человека. Как известно, уроки музыкальной культуры преподаются в общеобразовательных школах как эффективный предмет в формировании и развитии нравственно-эстетического воспитания учащихся.

Ключевые слова: народ, фольклор, песня, музыка, искусство, образование, школа, пение, чувство, личность, воспитание.

Milliy musiqaning eng ommalashgan turi xalq qo‘shiqalaridir. Xalq qo‘shiqalarida voqea hodisalar yakka shaxsning barcha kechikmalari o‘z aksini topadi va bu holat jamoaning his – tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan holda jaranglaydi. Shuning uchun ham folklor hamda milliy kuy – qo‘shiqalarimiz yoshlarni tarbiyalashga muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda shunday tarbiyaviy manbaga ega bo‘lgan xalq qo‘shiqalarining maktab dasturidagi o‘rni qanday? milliy qo‘shiqalar vositasida yoshlarni tarbiyalashda biz qanday foydalanayapmiz? – degan savol ko‘ndalang turadi. Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darsi o‘quvchilarda axloqiy – estetik tarbiyani shakllantirish hamda rivojlantirishda samarali predmet

sifatida o‘qitiladi. Darsda o‘quvchilar milliy musiqamiz durdonalari bilan birga jahon xalqlari musiqasidan ham vokiv bo‘ladilar. Musika o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan vazifalar esa, o‘quvchilarni milliy musiqamizning, yangi qo‘shiqlarning yaratilish tarixi, ularda kuylanadigan g‘oya va maqsadlar bilan tanishtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki, o‘quvchilar milliy folklor qo‘shiqlarini tinglaganda yoki kuylaganda ularda milliy g‘urur, Vatanni, millatni chin dildan sevish, go‘zallikni, ezgulikni his etish, pok niyat va chinakkam insoniy tuyg‘ular shakllanib boradi. Bugungi kunda muhim tarbiyaviy vosita manbai bo‘lgan milliy qo‘shiqlar maktab musiqa madaniyati darsidan qay darajada o‘rin olganligi quyidagi manzarada namoyon bo‘ladi.

Biz bu maqsadni amalga oshirishda tahlil asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan musiqa darsliklarini tanladik: Birinchi sinf musiqa darsligida tinglash uchun to‘rtta “Andijon polkasi”, “Do‘loncha”, “Chertmak”, “Dilxiroj” kuylari, kuylash uchun esa to‘rtta: “Chitti gul”, “Osmondagi oy”, “Olmacha anor”, “Choriy chanbar”, singari folklor qo‘shiqlari kiritilgan. Bundan shu narsa ayonki, birinchi sinf musiqa darsligida kuylash va tinglash uchun bor yo‘g‘i to‘rtta milliy kuy, to‘rtta milliy qo‘shiq kiritilgan xolos. Bu esa mazkur sinf o‘quvchilarining estetik talab va ehtiyojlarini to‘la qondira olmasligi tabiiy. Nazarimizda, boshlang‘ich sinf musiqa darsliklari quyidagi folklor qo‘shiqlari bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofikdir. Jumladan, “Begimjon ukam”, “Boroolmadim”, “Alpomish”, “Yallama-yorim”, “Gullola”, “Gulyor”, “Gul uyin”, “Do‘st-do‘st”, “Anorjon”, “Chiroyli”, “Qani-qani”, “Qizgina”, “Bodom qovoq”, “Omon-omon”, “Giryon qozoq” singari qadimiy kuy qo‘shiqlar shuningdek, respublikamiz voxalariga xos bo‘lgan “Buxorcha”, “Mavrigi”, “Namanganning olmasi”, “Lazgi”, “Azim daryo” hamda Vatan istikbolini madh etuvchi qo‘shiqlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan “Buxorcha” va “Mavrigi” qo‘shiqlaridan namunalar yuqori sinf musiqa darsliklariga kiritilgan. Lekin “Buxorcha” va “Mavrigi”lar turkum sifatida shakllanganligi bois, ulardan ayrim namunalarni boshlang‘ich sinf darsliklariga ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shuni e’tirof etish kerakki, umumiy o‘rta ta’lim standarti asosida musiqa madaniyati fani bo‘yicha 5-7 sinflar uchun darsliklar tuzishga mualliflar H. Nurmatov, A. Mansurov, D. Karimova, S. Begmatov, Q. Mamirov, I. Ro‘ziev, O. Ibrohimov, J. Sadirovlar milliy musiqamizning barcha imkoniyatlaridan keng foydalanganlar va ushbu dasturni tuzishga ular o‘zgacha usulni qo‘llaganlar. Mualliflar ta’kidlaganlaridek dasturning asosiy mohiyati shundaki, uning har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzudan kelib chiqadi va o‘rganish jarayonida musiqaning aniq mohiyatini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari dasturda musiqa tignlash,

qo‘shiq kuylash va musiqa savodi mashg‘ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qaralishi kerak. Shuningdek, dasturda raqs va turli ritmik harakatlar, ya‘ni chapak chalish, shaqildoq o‘ynatish musiqaga jo‘r bo‘luvchi bolalar cholg‘u asboblari hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqiy faoliyatlariga e‘tibor qaratganligi darsning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘ladi.

Muhimi, yangi tuzilgan dasturga musiqiy asarning 50-60 foizining (xususan yuqori sinflarda) milliy kuy va qo‘shiqlar qatori mumtoz ashularimizning kiritilganligi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlari qatori mumtoz ashularimiz ya‘ni maqomlarning mushkilot va nasr qismlaridan sho‘balar kiritilgani ayni muddaodir.

Endigi maqsad, ana shu dastur asosida yaratilgan darslik hamda qo‘llanmalar mazmunini boyitishda milliy folklor kuy va qo‘shiqlar, Xorazm xalfachilik maktabi repertuaridan namunalar, doston qo‘shiqlari, Farg‘ona vodiysining o‘ynoqi sho‘x lapar va yallalari shuningdek, Surxon vohasining jozibali xalq qo‘shiqlari hisobidan to‘ldirib dars sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, musiqa madaniyati darsi bo‘yicha yaratilajak darsliklardan milliy kuy va qo‘shiqlarimiz mustahkam o‘rin olsa, yosh avlodni axloqiy, ma‘naviy va estetik jihatdan tarbiyalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

milliy qo‘shiqlar maktab musiqa madaniyati darsidan qay darajada o‘rin olganligi quyidagi manzarada namoyon bo‘ladi.

Biz bu maqsadni amalga oshirishda tahlil asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan musiqa darsliklarini tanladik.

Birinchi sinf musiqa darsligida tinglash uchun to‘rtta “Andijon polkasi”, “Do‘loncha”, “Chertmak”, “Dilxiroj” kuylari, kuylash uchun esa to‘rtta: “Chitti gul”, “Osmondagi oy”, “Olmacha anor”, “Choriy chanbar”, singari folklor qo‘shiqlari kiritilgan. Bundan shu narsa ayonki, birinchi sinf musiqa darsligida kuylash va tinglash uchun bor yo‘g‘i to‘rtta milliy kuy, to‘rtta milliy qo‘shiq kiritilgan xolos. Bu esa mazkur sinf o‘quvchilarining estetik talab va ehtiyojlarini to‘la qondira olmasligi tabiiy. Nazarimizda, boshlang‘ich sinf musiqa darsliklari quyidagi folklor qo‘shiqlari bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Begimjon ukam”, “Boroolmadim”, “Alpomish”, “Yallama-yorim”, “Gullola”, “Gulyor”, “Gul o‘yin”, “Do‘st-do‘st”, “Anorjon”, “Chiroyli”, “Qani-qani”, “Qizgina”, “Bodom qovoq”, “Omon-omon”, “Giryon qozoq” singari qadimiy kuy qo‘shiqlar shuningdek, respublikamiz voxalariga xos bo‘lgan “Buxorcha”, “Mavrigi”, “Namanganning olmasi”, “Lazgi”, “Azim daryo” hamda Vatan istikbolini madh etuvchi qo‘shiqlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan “Buxorcha” va “Mavrigi” qo‘shiqlaridan namunalar yuqori sinf musiqa darsliklariga kiritilgan. Lekin “Buxorcha” va

“Mavrigi”lar turkum sifatida shakllanganligi bois, ulardan ayrim namunalarni boshlang‘ich sinf darsliklariga ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shuni e’tirof etish kerakki, umumiy o’rta ta’lim standarti asosida musiqa madaniyati fani bo’yicha 5-7 sinflar uchun darsliklar tuzishga mualliflar H. Nurmatov, A. Mansurov, D. Karimova, S. Begmatov, Q. Mamirov, I. Ro’ziev, O. Ibrohimov, J. Sadirovlar milliy musiqamizning barcha imkoniyatlaridan keng foydalanganlar va ushbu dasturni tuzishga ular o’zgacha usulni qo’llaganlar. Mualliflar ta’kidlaganlaridek dasturning asosiy mohiyati shundaki, uning har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzudan kelib chiqadi va o’rganish jarayonida musiqaning aniq mohiyatini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari dasturda musiqa tignlash, qo’shiq kuylash va musiqa savodi mashg’ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qaralishi kerak. Shuningdek, dasturda raqs va turli ritmik harakatlar, ya’ni chapak chalish, shaqildoq o’ynatish musiqaga jo’r bo’luvchi bolalar cholg’u asboblari hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqiy faoliyatlariga e’tibor qaratganligi darsning samaradorligini oshirishda muhim omil bo’ladi.

Muhimi, yangi tuzilgan dasturga musiqiy asarning 50-60 foizining (xususan yuqori sinflarda) milliy kuy va qo’shiqlar qatori mumtoz ashulalarimizning kiritilganligi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, folklor qo’shiqlari qatori mumtoz ashulalarimiz ya’ni maqomlarning mushkilot va nasr qismlaridan sho’balar kiritilgani ayni muddaodir.

Endigi maqsad, ana shu dastur asosida yaratilgan darslik hamda qo’llanmalar mazmunini boyitishda milliy folklor kuy va qo’shiqlar, Xorazm xalfachilik maktabi repertuaridan namunalari, doston qo’shiqlari, Farg’ona vodiysining o’ynoqi sho’x lapar va yallalari shuningdek, Surxon vohasining jozibali folklor qo’shiqlari hisobidan to’ldirib dars sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, musiqa madaniyati darsi bo’yicha yaratilajak darsliklardan milliy kuy va qo’shiqlarimiz mustahkam o’rin olsa, yosh avlodni axloqiy, ma’naviy va estetik jihatdan tarbiyalashda asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To’xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X

3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- [Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'Zbek Folklorining O 'Rni Va Ahamiyati](#)- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Confrencea - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG'U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO'GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL](#) . Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich .[O'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI](#). [Vol. 75 No. 1 \(2025\): PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1](#).
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO 'SHIQLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024
11. Rustamov Feruz Tavakkal oqli, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journal> spark.org /index.php/ sjird/article/ view/863

12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O'Quvchilarni Ma'naviy-Axloqiy Shakllantirishda O'zbek Xalq Qo'Shiqlari Ahamiyati. *Progress Annals: Journal of Progressive Research*|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(4), 14-19.
<https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. *Ilm-fan va texnologiyalar*. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H., Nurullayev F.G. O'ZBEK FOLKLOR QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. *Inter education & global study* 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O 'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O 'RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitara Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*. 2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*. 2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. *Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications»* 2022. Vol 24, № 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM МАКТАБЛАРИДА МУСИҚА ТАРБИЯСИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2022 Special issue, 130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе

создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)

23. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.

24. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.

25. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.

26. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.

27. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.

29. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

30. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

ПРАВОВЫЕ РИСКИ M&A: АНАЛИЗ УГРОЗ И МЕХАНИЗМОВ ИХ МИНИМИЗАЦИИ

Сунатуллаев Рустам Мухтор угли

Руководитель программ бизнес образования Executive MBA, CEO / TEAM
University слушатель программы Executive MBA TEAM University/Kozminsky
University

Аннотация

В данной работе рассматриваются правовые риски, связанные со сделками слияния и поглощения (M&A), с акцентом на анализ угроз и механизмов их минимизации. Исследование включает обзор национального законодательства Узбекистана, регулирующего сделки M&A, а также международных стандартов и соглашений. Определены основные правовые риски, такие как нарушение антимонопольного, налогового и трудового законодательства, недостоверность информации, проблемы с правами собственности и юридическая ответственность. Предложены практические рекомендации по снижению правовых рисков, включая проведение тщательного due diligence и согласование условий с регуляторами. Работа актуальна в контексте экономических реформ и развития инвестиционного климата Узбекистана.

Ключевые слова: слияние и поглощение (M&A), правовые риски, корпоративное право, антимонопольное регулирование, due diligence, законодательство Узбекистана, корпоративное управление, инвестиционный климат, приватизация, юридическая ответственность.

Sunatullaev Rustam Muxtor o`g`li

TEAM University Executive / Education Programs Director, EMBA, CEO
listener in Team University/Kozminsky University

LEGAL RISKS OF M&A: ANALYSIS OF THREATS AND MECHANISMS FOR THEIR MINIMIZATION

Abstract

Адвокатура в Республике Узбекистан занимает важное место в системе правовой защиты прав и свобод граждан, обеспечивая доступ к квалифицированной юридической помощи. Проведённое исследование показало, что действующее законодательство предоставляет адвокатам возможность выбора между различными организационно-правовыми формами осуществления профессиональной деятельности: индивидуальной практикой, коллегиями адвокатов и юридическими консультациями. Каждая из этих форм обладает своими особенностями, преимуществами и вызовами, связанными с организацией работы, степенью независимости, финансовой устойчивостью и доступностью для населения.

Вместе с тем, выявленные проблемы — такие как недостаточная правовая и информационная поддержка молодых адвокатов, неравномерность развития адвокатских форм в регионах, а также необходимость совершенствования процедур регулирования — свидетельствуют о потребности в комплексном обновлении нормативной базы. Актуальными остаются задачи институционального укрепления адвокатуры, повышения прозрачности и эффективности её деятельности, а также внедрения международных стандартов в национальную правовую практику.

Учитывая происходящие в стране правовые реформы и курс на развитие гражданского общества, усовершенствование организационно-правовых механизмов адвокатской деятельности должно стать одной из приоритетных задач в контексте модернизации правовой системы Узбекистана. Это позволит не только повысить уровень правовой помощи, но и укрепить доверие граждан к институтам правосудия.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы. <https://www.lex.uz/ru/docs/5841077>
2. Конституция Республики Узбекистан от 30 апреля 2023 года
3. Закон Республики Узбекистан «Об адвокатуре» № ЗРУ-349-I. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1997 г., № 2, ст. 48; 2001 г., № 1-2, ст. 23; 2003 г., № 5, ст. 67; 2004 г., № 1-2, ст. 18; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2005 г., № 37-38, ст. 280; 2008 г., № 52, ст. 514; 2009 г., № 39, ст. 423; Национальная база данных законодательства, 12.10.2018 г., № 03/18/497/2044; 16.01.2019 г., № 03/19/516/2484; 24.05.2019 г., № 03/19/542/317, 11.09.2019 г., № 03/19/566/3734; 03.02.2022 г., № 03/22/749/0101; 04.08.2022 г., № 03/22/786/0705; 10.08.2023 г., № 03/23/862/0578; 07.02.2024 г., № 03/24/905/0106; 22.02.2024 г., № 03/24/911/0142; 28.02.2024 г., № 03/24/915/0160
4. Тожибаев Ю.Х. "Адвокатура в системе правовой помощи населению", Ташкент, 2019.
5. Krause R. "The Legal Profession in the European Union", Cambridge University Press, 2016
6. Холбоев А.Х. "Проблемы институционального развития адвокатуры в Узбекистане", Журнал "Юриспруденция", №1, 2021
7. International Bar Association, "Guiding Principles on the Role of Lawyers", 2020

GINEKOLOGIK KASALLIKLARDA VITAMINLAR VA MIKROELEMENTLARNING AHAMIYATI

Atadjanova Zamira Yusupovna

Ibodullayeva Muqaddas Olimboyevna

Alimova Maxliyo Maxmud qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Dolzabligi: Vitamin va mikroelementlar yetishmovchiligi ayollarning reproduktiv salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi global muammodir. O'zbekistonda aholining 60% dan ortig'i D vitamini yetishmovchiligiga duchor bo'lib, bu gormonal disbalans, menstrual tsikl buzilishlari va boshqa ginekologik kasalliklar riskini oshiradi. Ekologik ifloslanish, noto'g'ri ovqatlanish va yomon hayot tarzi vitaminlar singishini sezilarli darajada kamaytiradi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, vitamin yetishmovchiligi dunyo bo'ylab 1 milliardga yaqin ayollarda reproduktiv salomatlik muammolariga olib kelmoqda. O'tgan 5 yil ichida vitaminlar va reproduktiv funktsiya o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi 150 dan ortiq ilmiy ishlar nashr etilgan. Mamlakatimizda reproduktiv yoshdagi ayollar aholining 35% ni tashkil etishi, bu muammoning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Vitamin profilaktikasi ginekologik kasalliklarni oldini olish va ularni davolashning eng samarali va arzon usullaridan biri hisoblanadi.

Materiallar va qo'llanilgan usullar: 1 yil davomida 25-35 yosh oraliq'idagi 150 nafar reproduktiv yoshdagi ayol bemorlar kuzatildi. Bemorlardan quyidagi tekshiruvlar o'tkazildi: umumiy qon tahlili, biokimyoviy tahlil (qand, ALT, AST, kreatinin), gormonal tahlillar (FSH, LH, prolaktin, estradiol, progesteron, AMG), vitamin darajalari (25-OH D vitamini, B12, folat), mikroelementlar (temir, ferritin, sink, yod). Instrumental tekshiruvlar qatoriga transvaginal ultrasonografiya, kolposkopiya va endometriyal biopsiya kirdi. Statistik tahlil SPSS 26.0 dasturida t-test, ANOVA va chi-square testlari yordamida amalga oshirildi. Barcha ma'lumotlar anonim ravishda to'plandi va xususiy qonunlar asosida qayta ishlandi.

Natijalar: Tadqiqot davomida 150 nafar ayol bemorda quyidagi natijalar qayd etildi: 68% hollarda D vitamini yetishmovchiligi (25-OH D <20 ng/ml), 42% temir yetishmovchiligi anemiyasi (ferritin <15 µg/l), 35% sink yetishmovchiligi (qonda sink <700 µg/l) aniqlangan. Gormonal tahlillarda 58% bemorda LH/FSH nisbati 2,5 dan yuqori (poliqistoz sindromi belgisi), 32% bemorda AMG darajasi past (<1 ng/ml) bo'lgan. Ultrasonografik tekshiruvda 45% bemorda yomg'irli follikullar, 28% endometrioz belgilari qayd etildi. Vitamin D yetishmovchiligi bilan gormonal disbalans ($r=0,62$, $p<0,05$) va menstrual tsikl buzilishlari ($r=0,57$, $p<0,05$) o'rtasida kuchli korrelyatsiya aniqlangan. Temir yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda menstrual

ko'p qon ketish holatlari 3,2 baravar ko'p uchragan ($p < 0,01$). Sink yetishmovchiligi bo'lgan ayollarda infeksiyon asoratlari 2,8 baravar ko'p kuzatilgan ($p < 0,05$).

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, reproduktiv yoshdagi ayollarda vitamin va mikroelementlar yetishmovchiligi (ayniqsa D vitamini, temir va sink) gormonal disbalans, poliqistoz sindromi, endometrioz va boshqa ginekologik kasalliklar rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, profilaktik maqsadda vitamin-mikroelement komplekslaridan foydalanish, ayniqsa ekologik noqulay sharoitda yashovchi ayollarda reproduktiv salomatlikni saqlash va ginekologik kasalliklarning oldini olishda samarali usul bo'lishi mumkin. Bu sohada qo'shimcha klinik tadqiqotlar o'tkazish va individual terapiya protokollarini ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Резников А. Г. Препараты прогестерона: фармакологические особенности, преимущества, клиническое применение. // Практикующий врач. — 2004. — № 3. — С. 5-9.
2. Руководство по эндокринной гинекологии. / Под ред. Е. М. Вихляевой. — М.: Медицинское информационное агентство, — 1997. — 768 с.
3. Серов В. Н., Прилепская В. Н., Овсянникова Т. В. Гинекологическая эндокринология. — М.: МЕДпресс-информ, — 2004. — 528 с.

DAVLATNING MONETAR SIYOSATI VA UNING IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDAGI AHAMIYATI

Choriyorov Behruz Ilhomjonovich

Termiz davlat universiteti Iqtisod yo'nalishi magistranti,

tel. nomeri: +99-899-961-24-09

Annotatsiya. Yumshoq monetar siyosat — bu markaziy bank tomonidan iqtisodiyotga qo‘shimcha stimuly berish maqsadida pul massasini oshirishga qaratilgan siyosat bo‘lib, asosan asosiy foiz stavkasini pasaytirish orqali amalga oshiriladi. Ko‘plab davlatlar inqiroz arafasida foiz stavkalarini tushirish orqali iqtisodiyotga stimuly berishni maqsad qiladi. Nisbatan qattiq monetar siyosat esa yuqori inflyatsiyaga qarshi kurash maqsadida yuritiladigan siyosat bo‘lib, asosiy foiz stavkasining oshirilishi hamda inflyatsiya darajasi bilan asosiy foiz stavkasi o‘rtasida ma‘lum darajada ijobiy farqni saqlab turishni nazarda tutadi.

Абстрактный. Мягкая денежно-кредитная политика — это политика центрального банка, направленная на увеличение денежной массы с целью дополнительного стимулирования экономики, в основном за счет снижения ключевой процентной ставки. Многие страны стремятся стимулировать экономику путем снижения процентных ставок накануне кризиса. Относительно жесткая денежно-кредитная политика — политика, направленная на борьбу с высокой инфляцией, которая предполагает повышение ключевой процентной ставки и поддержание определенной положительной разницы между уровнем инфляции и ключевой процентной ставкой.

Abstract. A loose monetary policy is a policy aimed at increasing the money supply by the central bank in order to provide additional stimulus to the economy, mainly by reducing the key interest rate. Many countries aim to stimulate the economy by lowering interest rates on the eve of a crisis. A relatively tight monetary policy is a policy aimed at combating high inflation, which involves increasing the key interest rate and maintaining a certain positive difference between the inflation rate and the key interest rate.

Kalit so‘zlar. Foiz stavkalari. Monetar siyosat. Inqiroz. Iqtisodiyot. Inflyatsiya. Stimuly. Moliyaviy barqarorlik.

Ключевые слова. Процентные ставки. Денежно-кредитная политика. Кризис. Экономика. Инфляция. Стимул. Финансовая стабильность.

Keywords. Interest rates. Monetary policy. Crisis. Economy. Inflation. Stimulus. Financial stability..

Qattiq monetar siyosat vositasida asosiy foiz stavkasining nisbatan yuqori saqlab turilishi o‘z-o‘zidan mamlakatda pul massasi o‘shishini sekinlashtiradi. Pul massasi o‘shishining sekinlashishi valyuta kursining oshishiga — milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan qadri ortib borishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xususan, 2022 yil noyabr oyi holatiga real valyuta kursi, turli terbranishlardan so‘ng, 2019 yil bilan taqqoslaganda 7 foizga [balandroq bo‘lgan](#). Ta’kidlash joizki, milliy valyutaning real almashinuv kursi 2019 yildan keyingi davrda biron marta 100 foizdan, ya’ni 2019 yil sentabr oyidagi darajadan pastga tushmagan. Bu esa, boshqa shartlar o‘zgarmagan holda, eksport tovarlarining hamkor davlatlarda qimmatroq bo‘lib qolishiga va, tabiiyki, ularning raqobatbardoshligi pasayishiga olib keladi. Ichki bozorda esa, aksincha, import tovarlarning narxi arzonlashadi. Ya’ni, real valyuta kursining o‘zgarishi (boshqa shartlar o‘zgarmagan holda) mahalliy tovarlarni jahon bozorida 2019 yildagiga qaraganda 7 foizga qimmatroq, import tovarlarini ichki bozorda 7 foizga arzonroq qilib qo‘ygan. Bu holat o‘z-o‘zidan tashqi savdo defitsitining o‘shishiga olib keladi. Markaziy bank mamlakatning bank tizimini muhim bo‘g‘ini hisoblanib, u monetar (pul – kredit) siyosatini yurituvchi asosiy subyektidir. Mamlakatning maqsadi va uni strategiyasidan kelib chiqib Markaziy bank ma’lum monetar rejimini yuritadi. Bunda tanlangan bir ko‘rsatkich “nominal langar” yoki maqsadli ko‘rsatkich belgilanib unga erishish uchun harakat qilinadi. Iqtisodiy adabiyotlar “nominal langar” sifatida YaIM, pul massasi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi va boshqa ko‘rsatkichlar mo‘ljall sifatida qabul qilinadi. Mazkur ilmiy maqolada Markaziy bank tomonidan qanday monetar rejimlarning olib borilishi atroflicha o‘rganilib, hozirgi vaqta dunyo mamlakatlari joylashgan hududlar bo‘yicha inflyatsiya targetlash rejimiga o‘tgan davlatlar va ularning 2023 yilda belgilangan ko‘rsatkichlari hamda 2021 yil O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiyani targetlash rejimiga o‘tganidan so‘ng maqsadli ko‘rsatkichga erishish va uning natijalari o‘rganildi.

Monetarizm (lot. moneta — tanga, pul) — davlatni iqtisodiy boshqarishga oid iqtisodiy nazariya va amaliy konsepsiya. 20-asr ning 50-yillarida Milton Fridmen asos solgan. M. M. Fridmen, G. Xaberler (AQSH), O. Fayt (GFR), J. Ryuyeff va boshqa asarlarida rivojlantirilgan. Fridmen va uning safdoshlari J. M. AGeynsning pulsiz omillar (mas, investitsiyalar) o‘rniga aynan pulli omillarni afzal ko‘radilar. Monetarizm iqtisodiyot nazariyasidagi neoliberalizm oqimiga kiradi, ta’minlash va iqtisodiy o‘shish mexanizmini yaratish muammolari bilan shug‘ullanadi va bu mexanizmida asosiy e’ti-borni pulga qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Gurevich, Monetar siyosat: nazariya va amaliyot.: M, 2001.

2. A.V.Tihonov, Rossiyada monetar siyosat.: M, 2010.
3. Tomas J.Sargent, Monetar siyosat, inflatsiya va biznes sikli.: Oxford University, 2008.
4. A.V.Kolesnikov, Monetar nazariya va siyosat.: Вестник Института экономики Российской академии наук, 2014.
5. Carl E. Walsh, Monetar nazariya va siyosat.: MIT Press, 20176. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ- 3272
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ- 3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz.
7. Malkina M.Yu. Inflyatsionnie protsessi i denejno-kreditnoye regulirovaniye v Rossii i zarubejom. Uchebnoye posobiye. – M.: INFRA-M, 2012.
8. Moiseev S.R. Denejno-kreditnaya politika: teoriya i praktika. Uchebnoye

MAQSUD SHAYXZODA MUMTOZ ADABIYOT ASOSCHISI

Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Qurilish muhandisligi fakulteti 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi, uning bu yo‘nalishdagi ilmiy va badiiy faoliyati yoritiladi. Shayxzoda Sharq mumtoz adabiyotining chuqur bilimdoni sifatida, Navoiy, Rudakiy, Umar Xayyom, Firdavsiy kabi mutafakkirlar merosini o‘rganib, ularni keng jamoatchilikka yetkazgan. U nafaqat tarjimon, balki adabiyotshunos olim sifatida ham mumtoz adabiy merosning falsafiy va estetik asoslarini ochib bergan. Maqolada Shayxzodaning o‘zbek mumtoz adabiy merosini zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan qayta talqin qilishi, bu boradagi ilmiy izlanishlari va asarlari tahlil qilinadi. Uning faoliyati mumtoz adabiyotning yangi bosqichda anglanishiga zamin yaratganligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *dramatik asarlar, publisistik ruh, adabiy - tanqidiy qarashlar, haqiqat himoyachisi.*

Ключевые слова: *драматические произведения, публицистический дух, литературно-критические взгляды, защитник правды.*

Maqsud Shayxzoda qondosh ozarbayjon naslidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan shoir bo‘lib, u 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tavallud topgan. Otasi Ma‘sumbek eluyurtda katta obro‘ga ega shifokor edi. U san‘at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk marotaba ana shu guruhlarda eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmualliminiga o‘qishga kiradi va uni tugatgach Dog‘istonning Darband, Bo‘ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a‘zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a‘zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta‘qiblar va tahqirlardan

benasib qoldirgani yo‘q. Muhimi shundaki, Shayxzoda «tole doim erkalamaganiga» qaramay, umrining oxiriga qadar o‘zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko‘rsatdi va O‘zbekiston uning ikkinchi vatani bo‘lib qoldi. Ozarbayjon naslidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug‘ilgan. Otasi Ma‘sumbek elu-yurtda katta obro‘ga ega shifokor edi. Maqsud Shayxzoda san‘at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi. 1929 yili yosh shoirning o‘zbek tilidagi dastlabki she‘ri “Sharq haqiqati” gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko‘p o‘tmay, Shayxzodaning birinchi to‘plami “O‘n she‘r”, keyinroq “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) kabi to‘plamlari nashr etiladi. “Qo‘llar” she‘rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi deb ta‘riflaydi. Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan to‘la. Uning she‘riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham shu tipdagi ijodkorning bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo‘r badiiy janrga ega bo‘lgan publitsistik maqolalari va nutqlari bu iste‘dodli adib ijodining mazmundorligi va rangbarangligidan yorqin nishonadir. Iste‘dodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qildi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” va “Romeo va Julietta” asarlari o‘zbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtirildi. Pushkin, Lermontov, Bayron she‘rlarini o‘zbek o‘quvchisiga ilk bor taqdim etgan shoirlar avlodi ichida Shayxzoda ham bor. Shoir mahoratining o‘shiga, uning jahon adabiyoti klassiklarining asarlarini g‘oyat sevib o‘rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o‘zlashtirgani ham sabab bo‘ldi. U G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o‘zining Vatan adabiyotini - Sharq she‘riyati merosini ham to‘la o‘rgangan edi.

Maqsud Shayxzodani 50-yillar boshida mutlaqo asossiz ravishda qamoqqa oladilar va 25 yilga surgun qiladilar. Stalin vafot etgach, tuhmat bilan nohaq qamalganlarning ishi qayta ko‘rildi. Shu tariqa 1955 yili ko‘pgina fidoyi ziyolilarimiz qatori Shayxzoda ham oqlanib chiqdi. Lekin 5 yillik qamoqxona azoblari natijasida shoirning sog‘ligi juda yomonlashib qolgan edi. Shunga qaramay, umrining oxirigacha 10 yil davomida baland uyning eng yuqori qavatida yashashga majbur bo‘ldi. Ana shunday og‘ir sharoit

va xastalikda ham hayotidan sira nolimay umrining oxirigacha ijod qilishdan to'xtamadi. U she'rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo'lgan drammlar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so'ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan "Beruniy" drammasini hisobga olmaganda, uning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi. Shayxzodaning ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan G'afur G'ulom o'sha vaqtda asarga yuqori baho berib: "Asardagi tarixiy jarayonning haqiqiy mazmuni va uning ichki ma'nosini" hayotiy tarzda ochib bergan deydi. 1946 yilgacha "Jaloliddin Manguberdi" dramasi dan ayrim parchalar "Armug'on" to'plamida bosilgan edi. Shundan keyin 43 yil davomida uning bu asari tilga olinmadi va dunyo yuzini ko'rmadi. Asar sahnadan olingandan keyin ko'p o'tmay Shayxzoda qamaladi. Bu asarga o'tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo'yiladi. Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo'lyozmasi ham bor edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar "yo'qoldi" degan bahonalar bilan qo'lyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur bo'ldi va nihoyat, teatrning sobiq suflyorlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq bo'ladi. Lekin shunda ham asarning matni e'lon qilinmay qolaveradi. Taqdirning o'yinini qarangi, muallif bu asarining chop etilganini ko'rmay olamdan ko'z yumdi. "Jaloliddin Manguberdi"ning to'la matni birinchi marta Bokuda ozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib chiqarildi. Faqatgina 1988 yildagina Jaloliddin Manguberdi" birinchi marta o'zbek tilida yozuvchining "Boqiy dunyo" degan kitobida to'la bosilib chiqarildi. Shayxzodaning yozuvchilik va ijodkorlik zehnining o'tkirligi yana bir bor isbotlanadi.

Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur bilar edi. 1941yilda Toshkentda nashr etilgan "Genial shoir" to'plami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgandir. Navoiy she'riyatining bu chuqur ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida o'rin egallab qoladi. Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan to'la. Uning she'riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag'ishlangan bo'lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham ijodkorning shu tipdagi bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo'r badiiy janrga ega bo'lgan publitsistik maqolalari va nutqlari ushbu iste'dodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir. Iste'dodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini o'zbek

tiliga tarjima qilishda katta xizmat qiladi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” hamda “Romeo va Juletta” asarlari o‘zbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtiriladi. Shoir mahoratining o‘shiga, uning jahon adabiyotining klassik asarlarini g‘oyat sevib o‘rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o‘zlashtirgani ham sabab bo‘ldi. U G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o‘zining Vatan adabiyotini - Sharq she‘riyati merosini ham to‘la o‘rgangan edi.

Yozuvchi, adabiy dramaturg, tarjima ustasi, buyuk pedagog, tilshunos va adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda nomidagi o‘quv zali va ekspozitsiya g‘oyat nozik did va mohiyatan uyg‘unlikda tashkil etilganini Shukur Burxonovdek ulkan san‘at darg‘asiyu, Jaloliddin Manguberdek buyuk tarixiy shaxslar siymolari ham aytib turibdi. Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi. Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so‘ng olti jildlik «Asarlar»i nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent. 2002. 558 b.
2. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969.
3. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972.
4. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975.
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.
6. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
7. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari” G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti T., 2016.
8. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008.

Shayxzoda va Shekspir: ikki buyuk ijodkor o‘rtasidagi ruhiy yaqinlik

Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti
Qurilish muhandisligi fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzoda va Uilyam Shekspir ijodining umumiy gumanistik yo‘nalishi, adolat va insoniylik g‘oyalariga sadoqat, ruhiy murakkabliklarni badiiy ifodalashdagi o‘xshashliklar tahlil qilinadi. Shayxzoda Shekspir asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda uning falsafiy teranligini, obrazlar ichki olamini va dramatik zo‘riqishni asliyatga sodiq holda yetkazishga intildi. Maqolada Shayxzodaning Shekspir asarlariga munosabati, tarjima jarayonidagi estetik va badiiy tamoyillari, ikki adibning ruhiy yaqinligi va inson tabiatiga badiiy qarashlaridagi uyg‘unliklari yoritiladi.

Abstract: This article analyzes the general humanistic orientation of the works of Maqsud Shaikhzoda and William Shakespeare, their commitment to the ideals of justice and humanity, and the similarities in the artistic expression of spiritual complexities. Shaikhzoda sought to convey the philosophical depth, inner world of images, and dramatic tension of Shakespeare's works faithfully in translating them into Uzbek. The article highlights Shaikhzoda's attitude to Shakespeare's works, his aesthetic and artistic principles in the translation process, the spiritual closeness of the two writers, and the harmony of their artistic views on human nature.

Kalit so‘zlar: Umumbashariy g‘oyalar, Uilyam Shekspir va Maqsud Shayxzoda, ichki ziddiyatlar, ehtiros va taqdir kuchlari, dramatik zo‘riqish, vatanparvarlik va insoniylik.

Keywords: Universal ideas, William Shakespeare and Maqsud Sheikhzadeh, internal conflicts, passion and the forces of fate, dramatic tension, patriotism and humanity.

Kirish

Adabiyot tarixida ayrim buyuk ijodkorlar o‘z davridan o‘zib chiqib, umumbashariy g‘oyalarni ilgari surishi bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taqdirini, ruhiy kechinmalarini va adolat uchun kurashni badiiy ifoda etishda o‘ziga xos maktab yaratganlar. Ana shunday buyuk siymolar orasida Uilyam Shekspir va Maqsud Shayxzoda alohida o‘rin tutadi. Ularning ijodiy yo‘li, g‘oyaviy-estetik qarashlari va inson tabiatiga badiiy yondashuvlarida chuqur ruhiy yaqinlik ko‘zga tashlanadi.

Shekspir va inson tabiatining badiiy tahlili

Shekspir o‘z asarlarida inson tabiatining murakkab va ziddiyatli tomonlarini mahorat bilan yoritdi. Uning dramatik obrazlari – Hamlet, Otello, Makbet, Qirol Lir – har biri

ichki azob-uqubat, ruhiy iztirob va hayotiy tanlov oldida turgan insonlar sifatida gavdalanadi.

Shekspir uchun inson faqat jamiyat mahsuli emas, balki o‘z ichki dunyosi, ehtirolari, orzulari va ikkilanmalari bilan murakkab mavjudotdir. Uning qahramonlari o‘z taqdirini o‘zlari belgilaydilar, ammo ko‘pincha ichki ziddiyatlar, ehtiros va taqdir kuchlari ularni fojiali yakunga olib keladi.

Shayxzoda va insonparvarlik g‘oyalari

Maqsud Shayxzoda ham insoniyat taqdirini, uning or-nomusi, adolat va erkinlik uchun kurashini badiiy asarlarining markaziga qo‘ydi. Shayxzodaning tarixiy va zamonaviy dramalarida inson o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi, haqiqat va adolat yo‘lida fidokorona kurashuvchi qahramon sifatida tasvirlanadi.

“Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” kabi asarlarida Shayxzoda insoniyat tarixidagi buyuk shaxslar taqdirini ochish orqali adolat, vatanparvarlik va insoniylik kabi abadiy qadriyatlarni ulug‘laydi.

Shayxzoda — Shekspir tarjimoni sifatida

Shayxzoda Shekspir asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali uning g‘oyaviy-estetik merosini o‘z xalqiga yetkazdi. Shayxzoda tarjima jarayonida Shekspirning dramatik zo‘riqishini, obrazlar ruhiy murakkabligini va asarlarning falsafiy teranligini asliyatga sodiq holda ifodalashga intildi.

Shayxzoda Shekspir dramatzimining zamiridagi umuminsoniy g‘oyalarni o‘zbek tilida tabiiy va jozibador tarzda berishga erishdi. U tarjimada nafaqat matnni o‘girdi, balki Shekspir ruhiyatini, uning badiiy falsafasini ham o‘zbek o‘quvchisiga yetkazishga harakat qildi.

Ikki ijodkor o‘rtasidagi ruhiy yaqinlik

Shayxzoda va Shekspirni birlashtiradigan jihatlar quyidagilardan iborat:

- **Inson ruhiyati va ichki kurashga e‘tibor:** Ikkala ijodkor ham inson qalbining nozik jihatlarini mahorat bilan tahlil qiladi.
- **Adolat va haqiqat izlash:** Har ikki adib asarlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi — adolatga intilish va haqiqatni topish istagidir.
- **Murakkab obrazlar yaratish:** Ular qahramonlarini faqat oq yoki qora rangda emas, balki murakkab, ziddiyatli xarakterda ifodalaydi.
- **Dramatik kuch va falsafiy teranlik:** Ularning asarlarida syujet voqeliklari ortidan chuqur falsafiy mazmun o‘z ifodasini topadi.

Xulosa: Maqsud Shayxzoda va Uilyam Shekspir – ikki davr va ikki madaniyat vakili bo‘lsa-da, ularni inson ruhiyatiga teran nazar, adolat va haqiqat izlovchi ruh uyg‘unlashtirib turadi. Shayxzoda Shekspir asarlarini tarjima qilish orqali faqatgina

matni emas, balki butun bir ma'naviy merosni o'zbek xalqiga hadya qildi. Bugun Shayxzoda va Shekspirning ijodiy ruhiy yaqinligi nafaqat adabiyotshunoslik, balki ma'naviy taraqqiyot yo'lida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. MAQSUD SHAYXZODA BUYUK TARJIMON. Tursinaliyev Dilshodjon Murodjonovich, Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li.
2. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E Conference Globe (pp. 176-178).
3. MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O'ZBEK MILLIY ADABIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI. Toshkent davlat transport universiteti Mamurova Feruza Islamovna, Islomjon Iqboljon o'g'li Qodirov.
4. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.

KIDNEY DISEASES IN PREMATURE INFANTS

**Radzhapov Adilbek Anvarbekovich., Karimov Rasulbek Khasanovich.,
Matchanov Jahongir Ruslanovich.
Urgench branch of the Tashkent Medical Academy.**

Relevance of the topic: Many ongoing scientific studies have focused on the development of nephrogenesis, tubular function, and vascular development in premature infants, which can help to identify the mechanisms of development of such diseases and prevent their occurrence.

As a result, opportunities are created to analyze the causes, morphological and clinical manifestations of kidney diseases in babies, as well as modern diagnostic and immunohistochemical methods.

The purpose of the work: referring to the regional perinatal center as the purpose of the work, nephron development in the kidneys of babies born at 28-34 weeks of gestation, the state of glomerular and tubular structures, changes in interstitial tissues were studied using USG, biochemical analyzes and immunohistochemical methods.

Results: During the study, various morphological and immunohistochemical changes in the structure and function of the kidneys were detected in infants, namely, a lack of nephronogenesis, with infantilism and nephron deficiency in glomerular structures noted by immunohistochemical analysis (using WT1, PAX2, PAX8 markers).

In conclusion, it can be said that studies have shown that kidney tissue in infants is not fully developed, which creates the basis for the development of various nephrological pathologies in them.

References:

1. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., & Рузметова, Д. Т. (2023, August). ЯТРОГЕНИЯ НА ПРИМЕРАХ ИЗ ПРАКТИКИ (По данным лет обзор). In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 1, pp. 10-12).
2. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., Рузметова, Д. Т., & Султанов, Б. Б. (2023). ВРАЧЕБНЫЕ ОШИБКИ В ПРАКТИКЕ АКУШЕРОВ-ГИНЕКОЛОГОВ. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 2, pp. 114-117).
3. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., Рузметова, Д. Т., & Султанов, Б. Б. (2023, October). ЯТРОГЕНИЯ В НЕОНАТОЛОГИИ (ПО ДАННЫМ ЛЕТ. ОБЗОР). In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 3, pp. 76-78).

4. Khasanovich, K. R., & Tulibaevna, R. D. (2021). Ziyaevich TH DISTRIBUTION OF PERINATAL DISEASE IN NEWBORN CHILDREN IN KHORZAM PROVINCE BY CITY AND DISTRICT AND CAUSES OF DEATH. *World Bulletin of Public Health*, 5, 82-85.
5. Юлдашев, Б. С., Исмаилов, О., Каримов, Р. Х., & Исмаилов, О. (2023). Хомила ва янги туғилган чақалоқлар мурдасининг суд тиббий экспертизаси (Текшируви). *Ўқув қўлланма: Т.: “О ‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU*, 96.
6. Каримов, Р., & Авезов, М. (2021). Оценка перинатальных случаев смерти, уровня и состояния заболеваний уха, горла и носа. *Журнал вестник врача*, 1(1), 60-63.
7. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Бекчанов, А. Ж. (2023). COVID-19 ЎТКАЗГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ПНЕВМОНИЯНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТИ. In *International Scientific and Practical Conference of Students and Young Scientists" Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects"(Poland)* (pp. 26-28).
8. Сатликов, Р. К., Юлдашев, Б. С., Закиров, Ш. Ю., Каримов, Р. Х., & ИЗУЧЕНИЯ, М. (2022). ИНФЕКЦИЯХ МОЧЕВЫХ ПУТЕЙ. *Монография:-Т.: “О ‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU*, 84.
9. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Джуманиязова, Н. С. (2024). ПАНДЕМИЯ ДАВРИДА ПНЕВМОНИЯ КАСАЛЛИГИ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ЛИМФА ТУГУНЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ЎЛИМ САБАБЛАРИ. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 3(1), 197-201.
10. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Джуманиязова, Н. С. (2024). COVID-19 ЎТКАЗГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ЛИМФА ТУГУНЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ (ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ПАТОЛОГИК АНАТОМИЯ ЭКСПЕРТИЗА БЮРОСИ, ХОРАЗМ ВИЛОЯТ ПЕРИНАТАЛ МАРКАЗИ). *Молодые ученые*, 2(3), 15-16.
11. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Бекчанов, А. Ж. (2023). COVID-ўтказган оналардан туғилган чақалоқларда пневмония касаллигининг асоратлари. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 2, pp. 10-12).
12. Турсунов, Х. З., Каримов, Р. Х., Сапаев, Д. Ш., & Сапаев, М. Ф. (2022). Буйрак ва буйрак усти беши касаллиги, уни даволаш усуллари ҳамда асоратлари (адабиётлар шархи). *Artikova DO XORAZM VILOYATIDA HOMILADOR AYOLLARDA SIYDIK YO ‘LLARI INFEKSIYASINI KECHISHI VA UNGA OLIV KELUVCHI OMILLAR*.

13. Каримов, Р. Х., Ражапов, А. А., & Тажибаева, М. Р. (2025, January). COVID-19 ЎТКАЗГАН ОНАЛАРДАН МУДДАТИГА ЕТИМАСДАН ТУҒИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ЎПКА ТЎҚИМАСИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 1, pp. 135-139).

14. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., Мадаминов, Ф. А., & Мадаминов, А. С. (2024). СНИЖЕНИЕ ЧАСТОТЫ РАЗВИТИЯ НОЗОКОМИАЛЬНОЙ ИНФЕКЦИИ МОЧЕВОГО ТРАКТА ПРИ СОЧЕТАНИИ АНТИБИОТИКОВ С ИММУНОМОДУЛЯТОРАМИ. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(12), 107-109.

TABLE OF CONTENTS

1	ДЕЛЛИТАЦИОН КАРДИОМИОПАТИЯЛАРДА ТАКРОРИЙ УМУМИЙ АНЕСТЕЗИЯНИНГ АСОРАТЛАРИ. Собиров М.М., Аташев А.Р., Р.Х.Каримов, Хударганов И.А.	3-4
2	НАВОЙШУНОСЛИК ФАНИНИНГ АСОСЧИЛАРИДАН БИРИ Boyxurozov Diyorbek Sherzod o'gli	5-8
3	MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI Aktamova Aziza Utkir kizi	9-12
4	O'ZBEK FOLKLOR QO'SHIQLARI – BADI'Y TUSHUNCHANI O'STIRUVCHI VOSITA Botirbayev Maxmudjon, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich	13-19
5	ПРАВОВЫЕ РИСКИ М&А: АНАЛИЗ УГРОЗ И МЕХАНИЗМОВ ИХ МИНИМИЗАЦИИ Сунатуллаев Рустам Мухтор угли	20-28
6	QORA BULUTLI YILLARGA “NUR” BAG‘SHIDA ETGAN-MAQSUD SHAYXZODA. Diyorbek Boyxurozov Sherzod o'g'li	29-32
7	ПОНЯТИЯ И ВИДЫ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ФОРМ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ АДВОКАТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН Жураев Анваржон Ильхомжон угли	33-38
8	GINEKOLOGIK KASALLIKLARDA VITAMINLAR VA MIKROELEMENTLARNING AHAMIYATI Atadjanova Zamira Yusupovna, Ibodullayeva Muqaddas Olimboyevna, Alimova Maxliyo Maxmud qizi	39-40
9	DAVLATNING MONETAR SIYOSATI VA UNING IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDAGI AHAMIYATI Choriyrov Behruz Ilhomjonovich	41-43
10	MAQSUD SHAYXZODA MUMTOZ ADABIYOT ASOSCHISI Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li	44-47
11	SHAYXZODA VA SHEKSPIR: IKKI BUYUK IJODKOR O'RTASIDAGI RUHIY YAQINLIK Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li	48-50

KIDNEY DISEASES IN PREMATURE INFANTS Radzhapov Adilbek Anvarbekovich, Karimov Rasulbek Khasanovich, Matchanov Jahongir Ruslanovich	51-53
OUTLINE	54-55